SUDYALARNI TAYINLASH VA SAYLASH MODELLARI

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
0009-0004-1721-0626
m.bobonazarov@tsul.uz

Annotatsiya. *Tezisda sudyalarni tayinlash va saylash modellarining nazariy asoslari va tasnifi tahlil qilinadi. Venetsiya komissiyasi hamda K.Gvarneri va P.Pederzoli tasniflarining cheklovlari ko‘rsatilib, legitimlik manbai va hal qiluvchi ta’sir mezonlariga asoslangan mualliflik tasnifi taklif etiladi. Shu asosda oltita asosiy model ajratilib, ular mustaqillik, legitimlik, hisobdorlik va oshkoralik mezonlari bo‘yicha qiyoslanadi. O‘zbekiston modeli “kengash markazlashgan tabaqalashgan aralash model” sifatida tavsiflanadi va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *sudyalarni tayinlash, sudyalarni saylash, sudyalar kengashi, Sudyalar oliy kengashi, aralash model, sud mustaqilligi, legitimlik, hisobdorlik.*

Аннотация. *В тезисе анализируются теоретические основы и классификация моделей назначения и избрания судей. Показаны ограничения классификаций Венецианской комиссии, а также К. Гуарньери и П. Педерцоли, и предложена авторская классификация, основанная на критериях источника легитимности и решающего влияния. На этой основе выделены шесть основных моделей, которые сопоставлены по критериям независимости, легитимности, подотчётности и открытости. Модель Узбекистана охарактеризована как «дифференцированная смешанная модель с центральной ролью судейского совета», сформулированы предложения по её совершенствованию.*

Ключевые слова: *назначение судей, избрание судей, судейский совет, Высший судейский совет, смешанная модель, независимость судей, легитимность, подотчётность.*

Abstract. *The paper examines the theoretical foundations and classification of models for the appointment and election of judges. It shows the limitations of the classifications proposed by the Venice Commission and by C. Guarnieri and P. Pederzoli and offers an original classification based on two criteria, the source of legitimacy and decisive influence. Six basic models are identified and compared in terms of independence, legitimacy, accountability and transparency. The model of*

Uzbekistan is characterized as a "council-centred differentiated mixed model", and proposals for its improvement are put forward.

Keywords: *judicial appointment, judicial election, judicial council, Supreme Judicial Council, mixed model, judicial independence, legitimacy, accountability.*

Sudyalarni tayinlash va saylash tartibi sud hokimiyati mustaqilligining boshlang‘ich kafolati hisoblanadi, chunki sudya o‘z vakolatini kimdan va qanday tartibda olishi uning keyingi faoliyatidagi erkinligini ko‘p jihatdan belgilaydi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu soha tubdan isloh qilindi. Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi, 2023-yilgi Konstitutsiya bilan esa quyi bo‘g‘in sudyalarini tayinlash vakolati to‘liq ushbu organga berildi [1]. Oliy Majlisda ko‘rib chiqilayotgan sudyalar maqomi to‘g‘risidagi yangi qonun loyihasi nomzodlarga qo‘yiladigan talablarni, jumladan yosh senzini qayta ko‘rib chiqishni nazarda tutmoqda [2]. Bunday sharoitda milliy tizim qaysi modelga mansubligini va uning qanday zaif tomonlari borligini aniqlash amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotda "doktrina" va "model" atamalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi, biroq ularni farqlash lozim. Doktrina sudyalik vakolatlarini kim va qanday asosda berishi kerakligi haqidagi nazariy g‘oyalar tizimi bo‘lsa, model uning qonunchilikdagi amaliy ifodasidir. Zamonaviy modellar to‘rt asosiy doktrinaga tayanadi. A.Hamilton asoslab bergan tiyib turish va muvozanat doktrinasi vakolatlarni berishni bir nechta hokimiyat tarmog‘i o‘rtasida taqsimlashni talab qiladi [3]. Demokratik legitimlik doktrinasi sudya vakolatini xalqdan olishi kerak degan g‘oyaga asoslanadi. Biroq J.Shugerman AQSh shtatlarida sudyalar saylovi tarixan ularni partiyaviy homiylikka qaramlikdan xalos etish uchun joriy etilganini ko‘rsatsa [4], D.Pozen bugungi raqobatli saylovlar sudyalarni saylovchilar kutgan qarorlarni chiqarishga majbur qilayotganini ta'kidlaydi [5]. Sudyalar o‘zini o‘zi boshqarishi doktrinasi mustaqillik kafolatini sudyalar ustunlik qiladigan organda ko‘radi, meritokratiya doktrinasi esa sudyalik lavozimini eng malakali nomzodga beriladigan kasbiy lavozim deb biladi.

Modellarni tasniflashda Venetsiya komissiyasi sudyalar xalq yoki parlament tomonidan saylanadigan tizimlarni ular davlat boshlig‘i, hukumat yoki sudyalar kengashi tomonidan tayinlanadigan tizimlardan farqlaydi [6]. Bu tasnif lavozimga qo‘yish aktini kim amalga oshirishiga asoslanib, nomzodni amalda kim hal qilishini e'tiborsiz qoldiradi. Natijada sud organlari tavsiyasini rasmiylashtiruvchi Niderlandiya qirollik farmoni ham, malaka kollegiyasi tavsiya etgan nomzodni sababini ko‘rsatmasdan rad etish mumkin bo‘lgan Rossiya Prezidenti farmoni ham [7, B. 42–43] bir guruhga tushadi. K.Gvarneri va P.Pederzoli ajratgan "byurokratik" va "professional" sudyalar korpusi tasnifi [8] esa tayinlash aktining huquqiy tabiatini

emas, nomzodlar manbasini tavsiflaydi. Shu sababli K.Malleson va P.Rassel tahriri ostidagi qiyosiy tadqiqotda qo‘llangan siyosiy hokimiyat va kasbiy hamjamiyat ta’siri nisbatiga asoslangan yondashuvga [9] tayangan holda, modellarni ikki mezon bo‘yicha tasniflashni taklif etamiz. Birinchi mezon legitimlik manbai, ya’ni lavozimga qo‘yish aktini amalga oshiruvchi subyekt, ikkinchisi esa hal qiluvchi ta’sir, ya’ni nomzodni amalda tanlaydigan subyektdir.

Shu asosda oltita asosiy model ajratiladi. Ijro hokimiyati tomonidan tayinlash modelida (Yaponiya, Kanada) legitimlik manbai ham, hal qiluvchi ta’sir ham hukumat yoki davlat boshlig‘iga tegishli bo‘lib, uning ixtiyori maslahat organlari bilan cheklanadi. Vakillik organi tomonidan saylash modelining izchil namunasi Shveytsariya bo‘lib, Federal Oliy sud sudyalarini Federal Majlis saylaydi va o‘rindiqlar amalda partiyalar o‘rtasida mutanosib taqsimlanadi. Xalq tomonidan saylash modeli AQShning ko‘plab shtatlarida va Boliviyada amal qiladi. Kooptatsiya modelida, xususan, Hindistondagi “kollegiya tizimi”da nomzodni katta sudyalar kollegiyasi hal qiladi. Sudyalar kengashi modelida (Italiya, Fransiya, Ispaniya) hal qiluvchi ta’sir sudyalar ustunlik qiladigan organga tegishli bo‘lib, davlat boshlig‘ining farmoni rasmiy tasdiq vazifasini bajaradi. Aralash yoki komissiyaviy modelni esa shartli ravishda “ikki kalitli model” deb atash mumkin. Unda nomzodni mustaqil organ tanlaydi, lavozimga qo‘yishni siyosiy legitimlikka ega subyekt amalga oshiradi va ikkalasining roziligisiz sudya tayinlanmaydi. Bu model Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya va Qozog‘istonda amal qiladi. Konstitutsiyaviy sudlar uchun vakolatni bir nechta subyekt o‘rtasida taqsimlovchi model (Italiya, Ispaniya) alohida ko‘rinish sifatida ajratiladi.

Modellarni mustaqillik, demokratik legitimlik, hisobdorlik va oshkoralik mezonlari bo‘yicha qiyoslash ularning hech biri mutlaq ustunlikka ega emasligini ko‘rsatadi. Ijro hokimiyati modeli qaror uchun aniq mas’uliyatni ta’minlaydi, ammo mustaqillik kafolati past. Parlament modeli legitim va oshkora, lekin siyosiylashuvga moyil. S.Choy, M.Gulati va E.Poznerning empirik tadqiqotiga ko‘ra, saylangan sudyalarning mustaqilligi tayinlanganlarnikidan aniq past emas [10], bu esa modellar ustunligini empirik isbotlash qiyinligini tasdiqlaydi. Kooptatsiya tashqi ta’sirdan maksimal himoyani beradi, biroq hisobdorlikni yo‘qqa chiqaradi. Kengash modelining natijasi esa uning tarkibiga bog‘liq. M.Bobek va D.Kosarj Markaziy va Sharqiy Yevropa tajribasi asosida kengash modelini mahalliy sharoitga moslashtirmasdan ko‘chirish “global yechimlar, mahalliy zarar”ga olib kelishini [11], N.Garupa va T.Ginzburg esa kengash tarkibi har doim mustaqillik va hisobdorlik o‘rtasidagi murosani aks ettirishini ko‘rsatadi [12]. Shu sababli aralash model eng muvozanatli hisoblanadi. Ammo u yakuniy subyektning rad etish vakolati

cheklangan va asoslantirilgan bo‘lishini talab qiladi, aks holda amalda ijro modeliga aylanadi.

O‘zbekiston qisqa davrda sudyalarni Prezident huzuridagi malaka komissiyasi tavsiyasiga ko‘ra Prezident tayinlagan ijro modelidan kengash markazlashgan modelga o‘tdi. Amaldagi tartibga ko‘ra, Oliy sud va Konstitutsiyaviy sud sudyalarini Prezident taqdimiga binoan Senat saylaydi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari raislari va ularning o‘rinbosarlarini Sudyalar oliy kengashining taqdimiga binoan Prezident tayinlaydi, viloyat va tuman darajasidagi sudlar sudyalarini esa Kengashning o‘zi tayinlaydi [1; 13]. Shu bois milliy modelni “kengash markazlashgan tabaqalashgan aralash model” deb tavsiflash mumkin. U quyi bo‘g‘in sudyalari uchun kengash modeliga, sud raislari uchun ikki kalitli modelga, oliy sud instansiyalari uchun esa vakillik organi ishtirokidagi uch kalitli modelga yaqin. Quyi bo‘g‘inda siyosiy subyekt ishtirok etmasligi milliy modelni mustaqillik jihatidan Rossiya modelidan ilg‘orroq qiladi. Biroq tashqi muvozanatlovchi subyekt yo‘q joyda hisobdorlik Kengash qarorlarining oshkoraligi va asoslantirilganligi orqali ta’minlanishi kerak.

Kengash modelining mazmuni uning tarkibiga bog‘liq. Amaldagi tahrirga ko‘ra, Sudyalar oliy kengashining yigirma bir a’zosidan o‘n bir nafari sudyalardan iborat, barcha a’zolar esa Prezident taqdimiga binoan Senat tomonidan saylanadi [1; 14]. Sudyalarning ko‘pchilikni tashkil etishi Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining CM/Rec(2010)12-son Tavsiyasiga mos keladi, biroq bu hujjat ham, Kiyev tavsiyalari ham sudya-a’zolar hamkasblari tomonidan saylanishini nazarda tutadi [15, 46-band; 16, 7-band]. Mazkur bo‘shliq “shaklan mustaqil, mazmunan bog‘liq” kengash xavfini tug‘diradi. Bundan tashqari, Prezident va Senatning Kengash tavsiya etgan nomzodni rad etish vakolati qonunda cheklanmagan. D.U.Aripov bu muammoni hal etish uchun rad etilgan nomzod Kengash tomonidan takroran taqdim etilganda uni majburiy tayinlash tartibini taklif etadi [17, B. 74–76]. Bizningcha, bu taklif milliy modelni sof kengash modeliga aylantiradi va Kengash tarkibi sudyalar hamjamiyati tomonidan shakllantirilmagan sharoitda korporativ yopiqlik xavfini kuchaytiradi. J.X.Abdurahmonxo‘jayev Senatda saylash muqobilsiz amalga oshirilishini qayd etgan [18, B. 42]. Ammo ikki va uch kalitli modellarda raqobat tanlov organida ta’minlanadi, vakillik organi esa yakka nomzodni ma’qullaydi yoki rad etadi. Senatda bir nechta nomzod o‘rtasida saylov o‘tkazilsa, tanlov kasbiy mezonlardan siyosiy mezonlarga ko‘chadi. Konstitutsiyaviy sud sudyalarini saylashda esa Venetsiya komissiyasi tavsiya etadigan malakali ko‘pchilik talabi belgilanmagan [19].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida xalq tomonidan saylash, kooptatsiya va sof kengash modellariga o‘tish maqsadga muvofiq emas, deb

hisoblaymiz. Ikki kalitli tuzilmani saqlagan holda uni uch yo‘nalishda takomillashtirish taklif etiladi. Birinchidan, Sudyalar oliy kengashining sudyalar orasidan saylanadigan a’zolariga nomzodlarni Senat tomonidan saylash saqlangan holda sudyalar hamjamiyati organi, ya’ni sudyalar qurultoyi taqdim etishi lozim. Ikkinchidan, Kengash tavsiya etgan nomzodni rad etish faqat qonunda sanab o‘tilgan asoslarga ko‘ra va asoslantirilgan qaror bilan amalga oshirilishi, Kengash esa a’zolarining uchdan ikki qismi ovozi bilan nomzodni takroran taqdim etish huquqiga ega bo‘lishi kerak. Uchinchidan, Konstitutsiyaviy sud sudyalarini Senat a’zolari umumiy sonining uchdan ikki qismi ovozi bilan saylash va nomzod ikki marta saylanmagan taqdirda Kengash yangi nomzodni tavsiya etishi tartibini joriy etish lozim. Mazkur qoidalarni sudyalar maqomi to‘g‘risidagi yangi qonunda mustahkamlash sud mustaqilligi va demokratik legitimlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda aralash modelning nominal emas, balki haqiqiy amal qilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [Elektron resurs] : 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan. – URL: https://constitution.uz/uz/clause/index (murojaat sanasi: 08.10.2026).

2.Sudyalikka nomzodlar uchun yosh senzi 35 yoshdan 30 yoshga tushirilishi mumkin [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2026. – 8 sentyabr. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/09/08/sudyalar-maqomi/ (murojaat sanasi: 08.10.2026).

3.Hamilton A. The Federalist No. 76: The Appointing Power of the Executive // The Federalist Papers. – New York, 1788.

4.Shugerman J.H. The People’s Courts: Pursuing Judicial Independence in America. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2012.

5.Pozen D.E. The Irony of Judicial Elections // Columbia Law Review. – 2008. – Vol. 108, № 2. – P. 265–330.

6.Judicial Appointments : Report adopted by the Venice Commission at its 70th Plenary Session (Venice, 16–17 March 2007) / European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). – CDL-AD(2007)028. – Strasbourg, 2007.

7.Кирющенко И.И. Проблемы публично-правового регулирования формирования судейского корпуса в Российской Федерации : дис. … канд. юрид. наук : 5.1.2. – Краснодар : Кубанский гос. ун-т, 2023.

8.Guarnieri C., Pederzoli P. The Power of Judges: A Comparative Study of Courts and Democracy. – Oxford : Oxford University Press, 2002.

9.Appointing Judges in an Age of Judicial Power: Critical Perspectives from around the World / ed. by K. Malleson, P.H. Russell. – Toronto : University of Toronto Press, 2006.

10.Choi S.J., Gulati G.M., Posner E.A. Professionals or Politicians: The Uncertain Empirical Case for an Elected Rather than Appointed Judiciary // Journal of Law, Economics, and Organization. – 2010. – Vol. 26, № 2. – P. 290–336.

11.Bobek M., Kosař D. Global Solutions, Local Damages: A Critical Study in Judicial Councils in Central and Eastern Europe // German Law Journal. – 2014. – Vol. 15, № 7. – P. 1257–1292.

12.Garoupa N., Ginsburg T. Guarding the Guardians: Judicial Councils and Judicial Independence // American Journal of Comparative Law. – 2009. – Vol. 57, № 1. – P. 103–134.

13.O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-703-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son.

14.O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi O‘RQ-427-son Qonuni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/3153668 (murojaat sanasi: 08.10.2026).

15.Recommendation CM/Rec(2010)12 of the Committee of Ministers to member states on judges: independence, efficiency and responsibilities [Electronic resource] : adopted on 17 November 2010. – URL: https://rm.coe.int/16805afb78 (murojaat sanasi: 08.10.2026).

16.Kyiv Recommendations on Judicial Independence in Eastern Europe, South Caucasus and Central Asia [Electronic resource]. – Kyiv : OSCE/ODIHR, Max Planck Minerva Research Group, 2010. – URL: https://cdn.osce.org/sites/default/files/f/documents/a/3/73487.pdf (murojaat sanasi: 08.10.2026).

17.Aripov D.U. Sud hokimiyati mustaqilligini tashkiliy-huquqiy takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari : yuridik fanlar doktori (DSc) dis. – T. : Bosh prokuratura akademiyasi, 2022.

18.Abdurahmonxo‘jayev J.X. O‘zbekistonda sudyalar korpusini shakllantirishni takomillashtirish va ular mustaqilligini ta’minlash : yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dis. – T. : TDYU, 2018.

19.Opinion on the Constitution of Montenegro : adopted by the Venice Commission at its 73rd Plenary Session (Venice, 14–15 December 2007) / European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). – CDL-AD(2007)047. – Strasbourg, 2007.